

**O`ZBYEKISTON RYESPUBLIKASI XALQ TA'LIM
VAZIRLIGI**

**A.QODIRIY NOMLI
JIZZAX DAVLAT PʻDAGOGIKA INSTITUTI**

Pedagogika – psixologiya fakul`teti

Defektologiya kafedrası

LOGOPEDIYA fanidan

Referat

**MAVZU: Ko'zi ojiz bolalar bilan olib boriladigan logopedik
ishning o'ziga xos xususiyatlari**

O. Raximov

Ko'zi ojiz bolalar bilan olib boriladigan logopedik

ishning o'ziga xos xususiyatlari

Ko'rish analozatorining faoliyati buzilganligi sababli ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarning nutqiy rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu nutqda o'z aksini topadi (exolaliya, "formalizm", so'z turkumining buzilishi va boshqalar).

Logopediyadagi mavjud izlanishlar asosan ko'rishida chuqur nuqsoni bor bolalarning talaffuzidagi nuqsonlariga bag'ishlangan (M.Ye.Xvatsev, S.L.Shapiro, A.D.Shipilo, S.V.Yaxontova). faqat 60-70 yillarda logopediyada nutq kamchiliklarini sistemali ravishda o'rganishning rivojlanishi bilan (R.Ye.Levina, V.K.Orfinskaya) ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar nutqining nafaqat tovushlar talaffuzidagi, balki nutqning rivojlanishidagi kamchiliklarni aniqlashga doir izlanishlar paydo bo'ldi.

Bu ona tilini o'qitish metodikasi bo'yicha mutaxassislar va logopedlar ishlaridir (O.L.Jilsova, S.L.Korobko, N.S.Kostyuchyak, N.A.Krilova, T.P.Sviridyuk). Masalan, S.L.Korobko nutqi to'liq, rivojlanmagan zaif ko'ruvchi bolalarning kattagina guruhini ajratdi.

Hozirgi vaqda ko'r va zaif ko'ruvchi bolalardagi nutq kamchiligi murakkab nuqson ekanligi hamda nutq va ko'rish faoliyatining sustligining o'zaro bog'liqligi nazariy va amaliy izlanishlarda isbotlangan.

Ko'rishida nuqsoni mavjud bo'lgan bolalarning nutq kamchiliklari turlichadir. Ular strukturasi va darajasi sifatidan murakkab bo'lib, nutqni, R.Ye.Levina ta'kidlaganidek yagona sistemadek qamrab oladi va bunda nutq kamchiliklari, nutq

kamchiliklarining yagona yadrosi bo'lib qolmaydi. Bunday bolalarda nutqning rivojlanishi murakkab sharoitda kechadi. Ular orasida ko'rish anomaliyalarining tug'ma shakllari uchrab turadi va bu holat nutqning paydo bo'lishiga doir boshqa funksiyalarning ham buzilishiga sabab bo'ladi.

Statistika materiallari shuni ko'rsatadiki, nutq kamchiliklari ko'ruvchi bolalarga nisbatan ko'rishida chuqur kamchiliklari bor bolalarda ko'proq uchraydi.

Olib borilgan izlanishlar shu kategoriyadagi bolalarning nutqini shakllanganligi to'rt darajaga ajratishga imkon beradi.

Birinchi daraja. Talaffuzidagi ayrim kamchiliklarning bo'lishi bilan ifodalanadi.

Ikkinchi daraja. Faol lug'at cheklangan. So'z va predmet obrazini solishtirishda, umumlashtiruvchi tushunchalarni hikoyalar tuzishda xatolarga yo'l qo'yiladi.

Talaffuzdagi kamchiliklar sigmatizmning turli ko'rinishlarida lambdasizm, parasigmatizm, pararotasizm, paralambdasizmda namoyon bo'ladi. Tovushlar talaffuzi va fonematik tasavvurlar eshitish differensiasiyasining rivojlanishida kamchiliklar kuzatiladi. Fonematik tahlil shakllanmagan bo'ladi.

Uchinchi daraja. Ekspressiv nutq lug'at boyligining sustligi bilan ajralib turadi. Umumlashtiruvchi tushunchalarni bilish, so'z va predmet obrazini solishtirish darajasi past bo'ladi. Mustaqil nutqning grammatik tomoni buzilgan, u faqat predmetlarni nomlash va bir ikki so'zli gaplardan iborat bo'ladi. Murakkab hikoyalarni bayon etish rivojlanmagan, talaffuz qilish va eshitish differensiasiyasi

sust shakllangan bo'ladi.

To'rtinchi daraja. Ekspressiv nutq juda cheklangan, umumlashtiruvchi tushunchalar va so'z-predmet obrazini solishtirishda jiddiy kamchiliklar bo'ladi. Bog'langan nutq ayrim so'zlardan iborat, exolaliyalar kuzatiladi. Nutqning grammatik tuzumini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar va eshitish differensiasiyasiga oid topshiriqlarni bajara olmaydilar. Fonematik tahlil va sintezning umuman rivojlanmaganligi kuzatiladi.

Ko'rishida nuqsoni bor bolalar nutqining rivojlanishining tahlili shuni ko'rsatadiki ularning ko'pchiligida sistemali nuqsonlar kuzatiladi va nutqning yetrali komponentlari buzilgan bo'ladi (fonetika, leksika, grammatika). Normal ko'ruvchi va ko'rishda nuqsoni bor bolalarning nutqidagi nuqsonlarning solishtiradigan bo'lsak ularning o'xshashligini kuzatamiz. Shu bilan bir qatorda nuto' kamchiliklarining darajasi va shakllanishi omillari jihatidan katta farqqa ham ega. Predmetli obrazlarning kamchiligi (yetishmasligi) natijasida nutqiy xotirada murakkab gaplar va gaplarning grammatik jihatdan to'g'ri tuzishdagi qiyinchiliklar kuzatiladi. Anamnezdagi ilk natal va postnatal patologik o'zgarishlar natijasida umumiy va xususiy omillar aniqlangan bo'lib, ular ko'rishida kamchiliklari bolalarning nutqini rivojlanmaganligiga sabab bo'ladi va nutqining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi qator funksiyalarning rivojlanishini ancha orqaga tortadi (praksis, gnozis, koordinasiya, chamalash). Demak, ilk postnatal davrida tug'ma yoki erta orttirilgan ko'rish nuqsoni nonutqiy funksiyalarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi birlamchi nuqson bo'lib qoladi. Ko'rishda nuqsoni bor bolalarda harakat faolligini cheklab turuvchi va atrofdagi olam bilan aloqani o'rnata olmaslikka

sabab bo'ladigan kamchiliklar ko'plab uchraydi. Psixik jarayonlarning (shu qatorda nutqning ham) rivojlanishida nutqiy muloqotning sifati, mikroijtimoiy muhit juda katta ta'sirga ega.

Shunday qilib u yoki bu nutq komponentlarini qamrab oluvchi sistemali nutq buzilishlariga sabab bo'luvchi omillarning polemorfligi yanada murakkab nuqson paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Tug'ma yoki erta orttirilgan ko'rish nuqsoni nutqning rivojlanmasligiga asosiy sabab bo'lib, boshqa patologik omillarning mavjudligiga qarab ta'siri kuchayishi yoki kuchini yo'qotishi mumkin.

Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarning nutqidagi kamchiliklarini o'rganish nafaqat nutqning barcha komponentlari, balki ko'pgina nonutqiy funktsiya-larni hisobga olish va tahlil qilishni talab qiladi. Bu kompleks logopedik tekshirish metodikasini tashkil qiladi.

Kompleks tekshirish metodikasining o'ziga xosligi shundaki, bu bolalardagi nutq kamchiliklari va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish ko'rish qobiliyati, qabul qilish usullari va bundan kelib chiqqan xolda materiallarni uzatish usullarini xisobga olgan xolda olib boriladi. Bunday ko'rishda chuqur nuqsoni bo'lgan bolalarning ko'pchiligida o'yin faoliyatining malakasi yo'qligini va predmetlar dunyosi xqidagi bilimlari cheklanganligini inobatga olish kerak bo'ladi. Shu sababli tekshirish davomida topshiriqlarni bajarishdan avval bolaga o'ziga xos instruksiyalar, ko'rsatib berish, birgalikda bajarish namunalari beriladi.

Asosiy diqqat ekspresiv nutq xolatiga qaratilishi kerak.

Ko'r va zaif ko'ruvchi maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar bilan olib

boriladigan korreksion ish tabiiy pedagogik jarayonda kechadi. Bu yetakchi didaktik va maxsus tamoyillarni inobatga olgan xolda tashkil qilinadi.

Maxsus tamoyillarga korreksion ta'lim, birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni inobatga olish, mavjud analizatorlarga tayanish va polisensor asosni shakllantirish (xosil qilish), atrofimizdagi olam xqida keng qamrovli tushunchalarni shakllantirish, nutqning shakllanganligi darajasini xisobga olish, nutq faoliyatining saqlanib qolgan komponentlariga tayanish, verbal materialning yangiligi, xajmi murakkablasha borishini xisobga olish kiradi.

Korreksion ta'lim jarayonida kompleksli keng qamrovli ta'sir ko'rsatiladi. Bu ta'sir logoped, o'qituvchi (maktabda), tiflopedagog (bog'chada) va tarbiyachilar tomonidan turli mashg'ulotlar davomida amalga oshiriladi. Korreksion ishda logopedik ta'sirga juda katta ahamiyat beriladi. Bu ta'sir maxsus tashkil qilingan mashg'ulotlarda olib boriladi. Mashg'ulotlar bolalarning ko'rish qobiliyatini, nutqi, qabul qilish usullari va individual xususiyatlarini inobatga olgan xolda olib boriladi. Shung qarab logopedik guruxlar tashkil qilinadi. Ko'r bolalar bilan ishlashdagi qiyinchiliklarni o'ziga xosligini inobatga olib mashg'ulotlar uzoq vaqt davomida individual ravishda olib boriladi. Murakkab nutq kamchiligi bilan birgalikda nonutqiy funksiyalari shakllanmagan, ya'ni turtinchi nutqiy darajaga ega bo'lgan bolalar bilan xam ko'proq individual mashg'ulotlar olib boriladi.

Tarbiyachi va tiflopedagoglar (maktab o'qituvchilari) logoped bilan birgalikda nutq kamchiliklarini bartaraf etish vazifalarini aniqlaydilar. Nutq madaniyatini rivojlantirishdagi korreksion-logopedik vazifalar o'yin, o'quv va mehnat faoliyati, hamda amaliy va musiqa mashg'ulotlarida amalga oshiriladi.

Zaif ko'ruvchi bolalar bilan logopedik mashg'ulotlarni tashkil etishda asosiy e'tibor saqlanib qolgan ko'rish faoliyatidan foydalanish imkoniyatiga qaratiladi (zarur bo'lgan hajmdagi, rangdagi didaktik material), relyefli rasmlar, "ajoyib xaltachalar", kubik va qalamchalar (tovush, bug'in va gaplarni belgilash uchun) ishlatiladi.

Predmetlar dunyosining ken qamrovligi haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda tabiiy ko'rgazmali qurollar ahamiyati juda kattadir.

Mashg'ulotlar o'yin orqali olib borilishi shart, sababi ko'rishdagi chuqur nuqsoni mavjud bo'lgan bolalarda o'yin faoliyati juda kech shakllanadi.

Birinchi darajali nutq rivojlanganligi aniqlangan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ishni rejalashtirayotganda bu bolalarning yaxshi nutqiy bazasi inobatga olinib, asosiy diqqat nutqning fonetik tomonini rivojlantirishga qaratiladi, eshitish diqqatini rivojlantiruvchi o'yin va mashqlar beriladi. Ko'zi ojiz bolalarning taqlid qilishi qiyinlashgani sababli ularga tovushlar mexanik usullar bilan qo'yiladi.

Ikkinchi darajali nutq rivojlanganligi aniqlangan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ta'sirni rejalashtirayotganda birlamchi guruh bolalari bilan olib boriladigan ishning barcha bo'limlari saqlab qolinadi va inobatga olinadi. Lekin bu yerda asosiy diqqat so'z boyligini oshirish, fonematik tahlil va sintezni rivojlantirishga qaratiladi.

Uchinchi va to'rtinchi darajali bolalar bilan ish olib borishda logopedlar (tiflopedagog va tarbiyachilar bilan kelishilgan holda) ta'lim va o'yin, amaliy faoliyatini korreksiyalashga qaratilgan elementlarni kiritadi. Bunda motor

malakalari, chamalash va ko'rib-yasash malakalari mavjud bo'lishi kerak. Bu ish nutq malakasini rivojlantirish va unga mos tushunchalarni shakllantirishni uzviy bog'laydi. Buning asosida bolalarda atrofimizdagi olam haqidagi chuqur tushunchalar va bilimlarni shakllantirish yotadi. Bu guruhdagi ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarning xususiyatlarini inobatga olgan holda asosiy diqqat ularda lug'at boyligini oshirish, so'zni predmet obrazi bilan to'g'ri solishtirish, umumlashtiruvchi tushunchalarni, grammatik tuzum va mustaqil nutqni rivojlantirishga qaratiladi.

Bu ishning asosida nutq stereotiplarini shakllantirish va boyitish yotadi. Lug'at boyligini boyitib borish, grammatik tuzumni amaliy qo'llash rasmlar bo'yicha gaplar tuzish jarayoniga imkon yaratadi (ko'rlar uchun relyefli rasmlar). Logopedik mashg'ulotlarda bolalarning nutq faoliyatidagi zaif bug'inlar ustida isholib boriladi. Logopediya, tarbiyachi, tiflopedagog (o'qituvchi) hamkorligi maktab ta'limi uchun zarur bo'lgan nutq bazasini yaratadi. Shakllangan nutq asosida logoped talaffuz avtomatizatsiyasi malakalarini tarbiyalashga va fonematik tahlil va sintezni o'rgatishga o'tishi mumkin (3 va 4 darajali bolalar bilan).

Tarbiyachi va tiflopedagog tomonidan shakllantirilayotgan nutq va predmetlar bazasi logoped mashg'ulotlarida keng qo'llaniladi va takomillashadi. Shuningdek, tarbiyachi va tiflopedagoglar mashg'ulotlarida logoped ishi davom ettiriladi. Ularning ishi uzviy bog'lanish asosida rejalashtiriladi (to'g'ri talaffuz malakalarini mustahkamlashga qaratilgan o'yinlar va nutqiy material, lug'at boyligi va bog'langan nutq malakalarini mustahkamlash uchun material).

Umuman olganda, pedagogik jarayon logopedizatsiyasi haqida gapirsak ham

bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda o'qituvchi, tarbiyachiining savodga o'rgatish va nutqni rivojlantirishdagi ishning uzviy bog'lanishida amalga oshiriladi. O'qituvchi logopedik mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan nutq-malakalarini o'z ishida mustahkamlab boradi. Bunday ish (kompleksli, korreksion va uslubiy) logopeddan nafaqat yuqori malakani, balki ko'rishda chuqur nuqsoni bor bolalar, ularning xususiyatlari va faoliyatini tashkil qilish maxsus maktab dasturini ham bilishni talab qiladi

Logopedik mashg'ulotlarida ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarda nutq kamchiliklarida rinolaliya, duduqlanish, tovush kamchiliklari bartaraf etiladi. Ish umumiy uslublarini inobatga olingan holda saqlanib qolgan ko'rish qobiliyatiga yoki maxsus usullarga (ko'r bolalarda) tayangan holda olib boriladi.

Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarda uchraydigan nutqiy nuqson muammosi ontogenez jarayonida nutq va tafakkurning o'zaro mutanosibligi, bolaning bilish faoliyati va nutqiy rivojlanish jarayonlarining o'zaro bog'liqligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.

L.S. Vigotskiy, J. Piye, A. Volonna, A.N. Leontyev, A.R.Luriya olib borgan tadqiqotlarida nutq va tafakkurning bog'liqligining asosiy omillarini aniq ko'rsatib berishgan.

Vigotskiyning fikricha, so'z mazmun va tovushlar birlashuvi bo'lib, u nutqiy tafakkurning barcha xususiyatlariga ega.

Shuningdek, L.S. Vigotskiy mazmunlar bir faktning o'zida «Nutqiy xodisa sifatida va fikirlash doirasidagi xodisa sifatida xam namoyon bo'ladi... u bir vaqtning o'zida xam nutq, xam tafakkur, chunki u nutqiy tavakkurning birligidir»

- deb xisoblaydi. Nutq va tafakkurning ontogenezdagi rivojlanishi taxlil qilib, L.S. Vigotskiy quyidagi xulosaga keladi, nutq va tafakkurning rivojlanishi notekis va paralel bo'lmagan xolda amalga oshiriladi va ular mutlaqo bir-biriga o'xshamas genetik asoslarga ega.

Nutqning rivojlanish jarayonida intellektni rivojlanishini nutqgacha bo'lgan faza va nutqning rivojlanishda intellektualgacha bo'lgan fazalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Bola nutqining rivojlanishning ilk bosqichida nutq va tafakkurning turli asoslari kuzatiladi. Birinchidan, nutq shakllanishi boshlanishiga qadar intellektual reaksiyalar xosil bo'ladi. Ikkinchidan, intellektual rivojlanishga qadar nutqiy belgilar kuzatiladi / gu- gulash/.

Shu tariqa, nutq va tafakkurning rivojlanishi ma'lum vaktgacha bir-biridan mustaqil xolda amalga oshiriladi. Bola xayotinig ikkinchi yiliga kelib, nutq va tafakkur rivojlanishi bir-biriga mos keladi. Mana shu davrdan boshlab nutq intellektual funksiyani bajaradi.

L.S. Vigotskiyning fikricha, nutkning rivojlanishi bolaning ijtimoiy-madaniy tajribasi va tafakkur qilish vositalariga bog'liq.

J.Piaje nutk rivojlanishining kognitiv /intellektual/ bazisini ochib beradi. Uning fikricha, bolada nutkning yuzaga kelishida sensomatr intellektning rivojlanishi aloxida rol o'ynaydi.

Sensomatr intellektning rivojlanishi bir necha boskichda amalga oshiriladi. Birinchi boskich sensomator mantik boskichi. Bunda bola bevosita idrok etilayotgan obyektlar xarakati mantiqini o'rganib boradi.

Keyinchalik bola xarakterlar mantiqidan tasavvur va tafakkurga asoslanadigan «Konseptual» mantiqqa o'tadi. Bunda bevosita idrok qilinmayotgan narsa – xodisalar xakida fikirlash malakasi shakllanadi. Bu boskich bolaning ikki yoshga mos keladi. J. Piajening fikricha, til semiotik /ramziy/ funksiyalar asosida shakllanib, uning shaxsiy xodisasi xisoblanadi.

J. Piaje xulosa qilishicha til, tafakkur asosida shakllanadi, til ramziy funksiyaning shaxsiy xolati bo'lib, bola rivojlanishining ma'lum davriga kelib shakllanadi. Shu tariqa, nutq ma'lum kognitiv /intellektual/ bazasida yuzaga kelishini isbotlaydi. Bola rivojlanishining keyingi bosqichlarida nutq va tafakkur munosabatlarini turli aspektlarida ko'rib chiqish mumkin. Bunda bolaning intellektual rivojlanishi nutq jarayonini rivojlanishiga qanday ta'sir qilishi muammosi yuzaga keladi. Bu muammoni xal etishda nutq rivojlanishining songnetiv mezonining 3 ta asosiy rejasini ko'rsatish mumkin.

I / Bolaning intellektual rivojlanish darajasi so'zlashuv asosini tashkil etuvchi semantik darajada aks etadi.

Bola tevarak-atrof xaqidagi uz tasavurlarini nutq orqali bayon qiladi. Bola u yoki bu til shaklini tushunmagan xolda, ana shu til shaklidan foydalana olmaydi. Shuning uchun bolalar avval uning intellektual darajasiga mos keluvchi, tafakkur qila oladigan, semantik nuqtai nazarda sodda til shakllarini o'zlashtirib oladi. Bola nutqida avval joyni bildiruvchi so'zlardan keyinchalik esa vaqt tushunchasini bildiruvchi so'zlardan foydalaniladi.

2 / Bolaning fikrlash faoliyatining shakllanmaganlik darajasi formal til vositalarini egallashga salbiy ta'sir qiladi. Bola ontogenez jarayonida faqatgina atrofdagilar nutqiga taqlid qilibgina qolmasdan balki, nutqning asosini tashkil etuvchi til

qonun-qoidalarini egallab boradi. Til qonuniyatlarini egallash uchun bolaning taxlil, tavsif, umumlashtirish va defferensasiya qilish jarayonlari shakllangan bo'lishi shart.

Z / ĩsqa vaqtli xotira xajmida, axborotlarni qayta ko'rib chiqish imkoniyati bilan bog'liq xolda nutqni egallash.

Inson nutqi qisqa vakt ichida bayon qilinadi va idrok qilinadi.

Bola tomondan nutqni egallashi nutqiy axborotlarni qayta qo'rib chiqish imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi. Bola avval bir so'zli, yoki ikki so'zli jummalarni talaffuz qiladi / pridikat, subyekt-obyekt /. Keyinchalik u yuqoridagi elementlarni birlashtiradi. / subyekt-pridikat-obyekt /. Axborotning xajmi qanchalik katta bo'lsa, u shunchalik qiyin kabul kilinadi va nutqda bayon etiladi. Demak, nutq rivojlanishining ketma-ketligi va tempining boshqaruvi bilish jarayonlarinig rivojlanganligi bilan bog'liq.

Intelektual yetishmovchilikning xarakterli belgilaridan biri-oliy psixik funksiyalarning shakllanmaganligi.

Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarda nutq rivojlanishining tempining sekinlashuvi kuzatiladi. / V.A. Kovishkov, Yu.G. Dem'yanov, v.x./. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarda normal intellektual rivojlanishiga ega bolalarda kuzatiladigan nutq buzulishlarining barcha turlari kuzatiladi. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarning klinikasida xarakterli belgilardan biri

murakkab nutq nuqsonlari, nutkiy buzulishlarning kompleksligi, turli nutqiy nuksonlarning birgalikda kelishi. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarda

uchraydigan nutqiy nuksonlarning kupgina ko'rinishlari, ularning umumiy psixopatologik xususiyatlari bilan bog'liq.

Ko'pchilik psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar ekspressiv va impressiv nutq buzulishlariga, ogzaki va yozma nutk buzulishlariga ega bo'ladilar.

Impressiv nutq bu bolalarda nutq tovushlarini nutqiy-eshituv idrokini yetarli darajada differensiyalashmagani, aloxida so'zlarni ma'nosini farqlay olmaslik xollari bilan xarakterlanadi.

Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarning ekspressiv nutqi uchun xos bo'lgan buzulishlar; tovush talaffuzi, lugat boyligining kashshokligi, nutkning grammatik kurilishining shakllanmaganligi, agramatizm ko'rinishlari, nutqiy noaktivlik / N.Yu. Boryakova, Ye.V. Malseva, R.D.Triger v.x./.

Turli mualliflar ishlarida psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarning nutqiy nuqsoni tabiatini xisobga olgan xolda tasniflashga o'ringanlar. Ye.V. Malseva ruxiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni 3 guruxga buladi: Birinchi gurux bolalar talaffuzida bir guruxga oid tovushlar, xatoliklar kuzatiladi. Bu nuqsonlar nutqiy matorikaning shakllanmaganligi, artikulyasiya apparati ko'rilishidi nuqsonlar bilan bog'liq .

Ikkinchi gurux – fonetik-fonematik nutq buzulishlariga ega bo'lgan bolalar bu bolalarda fonematik taxlil va tovushlarni eshituv differensasiyaning buzulishlari kuzatiladi.

Uchinchi gurux – nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar bu bolalarda – fonetik-fonematik nutk buzulishlaridan tashqari nutqning leksik-grammatik ko'rilishida xam kamchiliklar kuzatiladi. Bu bolalarda lug'at boyliginig cheklanganligi va differensiyalashmaganligi, gap tuzulishining sintaksik soddaligi, agramatizmlar kuzatiladi.

I.A. Simonova olib borgan tekshirish ishlarida 8-10 yoshli psixik rivojlanishi

sustlashgan bolalarda nutqiy rivojlanmaganlikning ikki klinik guruxini ko'rsatadi:

1/. Murakkab bulmagan infantilizm /M.S.Pevzner tasnifi buyicha/ ;

2/. Murakkab infantilizm,

Birinchi guruxga kiruvchi bolalar juda kamchilikni tashkil etadi.

Bu bolalarda kuzatiladigan yetakchi psixopatologik sindirim xissiy-irodaviy doiraning yetilmaganligi. Bu guruxga kiruvchi maktab o'quvchilarida, o'yingga bo'lgan qiziqishlari saqlangan, o'qishga qiziqishning yo'qligi kuzatiladi. Bu bolalar o'z emosional reaksiyalarini nazorat qilishi juda qiyinchilik bilan amalga oshadi. Bu bolalar uyin davomida faol, intiluvchan bulsalar, dars davomida esa tez charchab qoladilar, fikirlari tarqoq bo'ladi.

Ko'pchilik bolalar anamnezida nutqiy rivojlanishining orqada kolishi ko'rsatiladi. Bu bolalarda birinchi so'zlar 1,5 yoshda fazali nutqi 3 yoshda paydo buladi.

Tovush talaffuzini tekshirish jarayonida fakt bir bolada tovushlar talaffuzida kamchiliklar kuzatish aniqlangan. Barcha bolalarda artikulyasiya matorikasi saqlangan, bolalar ko'pchilik xollarda jarangli va jarangsiz tovushlarni almashtirib talaffuz qiladilar. Yozuvda xam shunga o'xshash xatolar kuzatiladi va ayrim xollarda bolalar o'z xatolarini tugirlaydilar.

Bolalar «Tovush», Bugin«», «Xarf», tushunchalarini yetarli darajada farqlay olmaydilar. Bu bolalar fonematik taxlilning sodda kurinishlari shakllangan. Murakkab ko'rinisdagi tovush taxlili / so'zda tovushlar ketma-ketligini aniqlash va tovushlar miqdorini aniqlash/ qiyinchilik bilan bajariladi.

Bu guruxga kiruvchi bolalarda xissiy-irodaviy irodaning o'ziga xos xususiyatlari kuzatiladi. Bu bolalar sergap, nutqiy muloqatga tez kirishadilar,

dialog davomida faol va ko'p xollarda suxbatdoshni gapini bo'ladilar.

Bunday bolalar nutqi ko'p xollarda emosional komponentlarinig mikdoriga boglik buladi.

I.A. Simanovaning xulosa qilishicha bu guruxga kiruvchi bolalarning nutqiy rivojlanishining darajasi, normal rivojlanayotgan kichik yoshdagi bolalarning rivojlanish darajasiga mos keladi.

Muallif ikkinchi guruxga kiruvchi bolalarda nutqiy rivojlanmaganlikning o'zgacha ko'rinishni kiritadi.

Bu bolalarning anamnezida nutqiy rivojlanishning orqada qolishni kuzatiladi. Birinchi so'zlari 2-2,5 yoshida paydo bo'ladi. Logopedik tekshirish jarayonida bu bolalarning 32 foizida tovushlar talaffuzida kamchiliklar aniklangan. Bu kamchilikning ko'pchiligini sirg'aluvchi va shovqinli tovush, «R» tovushini talffuzidagi kamchiliklar tashkil etadi.

Fonematik jixatdan bir-biriga yaqin bo'lgan 3-4 bo'g'inlar qatorini talaffuzida jarangli va jarangsiz, qattiq va yumshoq undosh tovushlarni almashtirish xollari kuzatiladi.

Bu gurux bolalarida «Tovush», «Bugin», «Xarf» tushunchalari differensiyallanmagan. Ularning ko'pchiligi so'zlarning tovush xarf -taxlili kiyinchiliklarga duch keladilar. Bu bolalarda nutqning fonetik-fonematik jixatdan rivojlanmaganligi kuzatiladi.

Shuningdek bu gurux bolalarida nutqning leksik-semantik jixatidan rivojlanmaganligi, lug'atining cheklanganligi, so'zlardan maksadsiz foydalanish xollari kuzatiladi.

Bu gurux bolalarida umumlashtirish jarayoning rivojlanmaganligi kuzatiladi

/ mebel, idish-tovoklar v.x./. Bolalarning passiv lug'atida umumlashtiruvchi tushunchalar kuzatiladi. Masalan: «mebel», «idish-tovoqlar» mavzusiga oid rasmlarni to'g'ri ko'rsatadilar.

Ekspressiv nutqida sifat va ravishdan kam foydalanadilar. Ularda agrammatizm xollari, so'zlarning ketma-ketligining buzilishi kuzatiladi. Bu gurux bolalarining bog'langan nutqi birinchi gurux bolalariga nisbatan past darajada bo'ladi.

Bu guruxga kiruvchi bolalar nutqining o'ziga xosligi nutqiy tizimning buzilishi; buzilish faoliyati va xissiy irodaviy doiraning rivojlanmaganligining nutqga ta'siri.

Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar tovushlari talaffuzidagi kamchiliklar psixik rivojlanishi buzilgan bolalarga nisbatan kam uchraydi.

Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlar tizimi o'uyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

-taxlil, tavsif, taqqoslash, umumlashtirish kabi tafakkur operatsiyalarini rivojlantirish;

-ko'ruv idrokni, taxlilini, ko'ruv xotirasini rivojlantirish;

-fazoviy tasovvurlarini shakllantirish;

-eshituv idroki, diqqat, xotirani rivojlantirish;

-motor rivojlanish, ayniqsa qo'l va artikulyasiya motorika buzulishlarini korreksiya qilish;

-leksikani rivojlantirish / lug'atini boyitish, so'z mazmuni tushunish, leksik tizimni shakllantirish, so'zlarning o'zaro bog'liqligini mustaxkamlash v.x./;

-tilning morfologik va sintaktik tomonini shakllantirish;

-nutqning kommunikativligini bilish va boshqaruvchilik funksiyalarini rivojlantirish.

Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ishlar kompleksli va differensiyalashgan xarakterga ega.

Korreksion-logopedik ishlarni differensiyalash bolaning klinik xarakteristikasi, individual-psixologik xususiyatlarini xisobga olgan xolda amalga oshiriladi.

Korreksion ishlar jarayonida logoped bolaning aqliy va nutqiy faoliyatini to'g'ri tashkil etmogi, ijobiy xis-tuyg'ularni uyg'otish, bilish faoliyatini maksimal faollashtirishi kerak. Bunda u turli usul va vositalardan foydalanishi, bolalarga yaqin rivojlanish doirasida samarali yordam ko'rsatishi kerak.

Adabiyotlar.

1. Luriya A.R. Osnovnyye problemy neyrolingvistiki – M, 1975.
2. Logopediya (pod red. N.S. Volkova)M, 1989.
3. Kolsova M.M. Razvitiye signalnix sistem deystvitelnosti u detey. L.,1980
4. Muminova Ya.,M. Kaxramonova Logopediya terminallarinig ruscha-o'zbekcha izoxli lugati T. «ukituvchi»- 1988.
5. Ponyatiyno-terminologicheskiy slovar logopeda. (pod.red. prof. V.I. Seliverstova)M., 1977.